

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

DONIYOROVA SHAXNOZA DONIYOROVNA

SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY RESURSLARDAN
FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on economical sciences**

Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna

Sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini
oshirish 3

Дониёрова Шахноза Дониёровна

Повышение эффективности использования экономических ресурсов
на промышленных предприятиях 27

Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna

Improving the efficiency of use of economic resources at industrial
enterprises..... 53

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works 58

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

DONIYOROVA SHAXNOZA DONIYOROVNA

SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY RESURSLARDAN
FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Iqt2873 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xomitov Komiljon Zoitovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xoshimova Naima Abitovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Salimov Baxodir Baxtiyarovich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.07.2022.I.16.05 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "____" _____ soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "____" _____kuni tarqatildi.

(2024-yil "____" _____dagi №_____ raqamli reystr bayonnomasi)

K.A. Sharipov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

J.S. Fayzullayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

T.S. Qo'chqorov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida zamonaviy sanoatning yuqori darajadagi texnik-texnologik rivojlanish va ixtisoslashish jarayonlari kuchaymoqda. Natijada sanoat ishlab chiqarishi tarkibida ko‘plab ishlab chiqarish bo‘g‘inlarining kengayib borishi resurslardan samarali foydalanishni taqozo etmoqda. “2022 yilda jahon YaIMda sanoatning ulushi 30,0%ni, mazkur tarmoqda band bo‘lganlar hissi esa 23,0%ni tashkil etgani hamda jahon YaIMning umumiy hajmida sanoatning ulushi Xitoy, AQSH, Hindiston, Yaponiya va Indoneziya davlatlarida eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan”¹. Bugungi kunda sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish asosida yuqori natijadorlikka erishish va ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oshirish kabi muammolarga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Jahonda sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishda bozor tamoyillariga muvofiq tarmoqda innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ishlab chiqarish jarayonlariga resurs-tejamkor texnika-texnologiyalarni joriy qilish, hamda sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikka erishish yo‘nalishidagi ilmiy izlanishlarga ustuvor darajada qaralmoqda. Bu borada sanoatda ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil qilish, iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish, mehnat unumdorligini oshirish omillari va rezervlarini aniqlash, tarmoq korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish kabi yo‘nalishlardagi tadqiqotlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekistonda bugungi kunda sanoat korxonalarining muntazam ravishda barqaror rivojlanishi, ularning ishlab chiqarish faoliyati intensivligini ta‘minlashning muhim omili hisoblangan iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasida “Sanoatning “drayver” sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to‘liq ishga solish maqsadida sanoatda qo‘shilgan qiymat hajmini 45 milliard dollarga yetkazish va 2,5 millionta yuqori daromadli ish o‘rinlarini yaratish”² kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda korxonada iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini baholashning resurslardan oqilona foydalanishga ta‘sirini belgilovchi omillar hamda ularning korxonalar va sanoat hududlari iqtisodiy rivojlanishini tavsiflovchi indekslar asosida takomillashtirish, korxonalarda iqtisodiy o‘shishni integral baholash usulini ishlab chiqarish jarayonlari rivojlanishining intensiv va ekstensiv omillari ta‘sirini e‘tiborga olgan holda takomillashtirish, fan sig‘imi yuqori bo‘lgan korxonalarda innovatsion faoliyatni boshqarish samaradorligini oshirish, innovatsion-investitsion faoliyatni rivojlantirish hamda ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etishning maqsadli dasturini amaliyotga joriy qilish, sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishning ilmiy-uslubiy va amaliy jihatlarini tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

¹ <https://strategy24.ru/rf/news/reyting-stran-mira-po-obemu-promyshlennogo-proizvodstva>

² “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2023 yil 12 oktabrdagi PF-169-son “Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2019 yil 16 sentabrdagi PQ-4453-son “Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 30 iyuldagi 633-son “Yoqilg‘i-energetika resurslarining narxлари va tariflarini o‘zgartirish to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Iqtisodiy munosabatlar, industrial iqtisodiyotning rivojlanishi, iqtisodiy resurslar, mehnat resurslari shakllanishi muammolarining fundamental asoslari xorijlik olimlar, jumladan, J.M. Keyns, A.Marshall, M.Fisher, R.D.Erenberg, R.S.Smit, A.Pigu, Y.A.Shumpeter, P.F. Druker va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan³.

Sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslar, mehnat resurslarining shakllanishi, ishlab chiqarish jarayonlarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish, mehnat unumdorligining o‘shirishini ta‘minlash, innovatsion faoliyatni rivojlantirish kabi muammolar MDH olimlaridan: L.M.Goxberg, V.N.Yusim, I.V.Denisov, A.V.Fomin, B.N.Avdonin, A.M.Batkovskiy, Yu.G.Odegov, A.V.Trachuk, S.Tolkachev, O.S.Suxarev, A.V. Silakov va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan⁴.

Shuningdek, mazkur muammolar tadqiqi o‘zbekistonlik Q.X.Abdurahmonov, B.A.Abdukarimov, Sh.N.Zaynutdinov, M.A.Mahkamova, A.Ortiqov, M.L.Tursunxo‘jayev, A.M.Qodirov, B.X.Umurzakov, E.X.Maxmudov,

³ Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег / Пер. с англ. проф. Н.Н.Любимова, под. ред. д.э.н., проф. Л.П.Куракова. – М.: МИЭМП, 2010; Маршалл А. Принципы экономической науки / А.Маршалл: В 3 т. – М.: Прогресс-Т.3. 1984. – 119 с.; Regional labor markets. Analytical contributions and cross-national comparisons. Ed. by M.Fischer and P.Nijkamp. – Elsevier Science Publishing Co, 1987. – 500 p.; Эренберг Р.Д., Смит Р.С. Современная экономика труда. Теория и государственная политика / Пер. с англ. – М., 1996, 34-б.; Пигу А. Экономическая теория благосостояния / Пигу А.: В 2 т. – М.: Прогресс – Т.2 – 1985. – 240 с.; Шумпетер Й. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия [Текст] / Й. Шумпетер: пер. с англ. предисл. В.С. Автономова. – М.: ЭКСМО, 2007. – 864 с.; Друкер П. Бизнес и инновации [Текст] / П. Друкер: пер. с англ. – М.: Вильямс, 2007. - 350 с.

⁴ Экономика знаний в терминах статистики: наука, технологии, инновации, образование, информационное общество: словарь. Под ред. Гохберга Л.М. – М.: Экономика, 2012. – 240 с.; Экономико-технологическое развитие фирм: учебник / В.Н.Юсим, И.В.Денисов. – М.: РЭУ им. Г. В. Плеханова, 2012. – 148 с.; Фомина А.В. Управление развитием высокотехнологичных предприятий наукоемких отраслей промышленности / А.В.Фомина, Б.Н.Авдонин, А.М.Батьковский, М.А.Батьковский. – М.: Креативная экономика, 2014. – 400 с.; Оdegov Ю.Г., Абдурахманов К.Х., Котова Л.Р. Оценка эффективности работы с персоналом: методологический подход: Учебно-практическое пособие. – М.: Издательство «Альфа-Пресс», 2011. – 752 с.; Трачук А.В. Инновации как условие долгосрочной устойчивости российской промышленности / А.В. Трачук // Эффективное антикризисное управление. – 2012. – № 6. – С. 66-71.; Толкачев С. Промышленная политика и «мейнстрим»: причины несовместимости / С. Толкачев // Экономист. – 2014. – № 4. – С. 70-80.; Сухарев О.С. Экономика технологического развития / О.С. Сухарев. – М.: Финансы и статистика, 2008. – 481 с.; Силаков А.В. Управление технологическими рисками в промышленных проектах / А.В. Силаков, В.В. Силакова // Проблемы теории и практики управления. – 2014. – №5. – С. 106-112.

D.Tojiboyeva, M.Yu.Isoqov, Sh.M.Yuldasheva kabi olimlarning ilmiy ishlarida atroflicha yoritib berilgan⁵.

Yuqorida ta’kidlab o’tilgan iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlarida iqtisodiyotning innovatsion shakllanishi sharoitida sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish mexanizmlari atroflicha o’rganilmagan. Shuningdek, sanoatda innovatsion faoliyatni rivojlantirish asosida iqtisodiy resurslar samarali foydalanish masalalari qisman o’z aksini topgan. Bugungi kunda sanoatda iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish bilan bog’liq tadqiqotlar yetarli darajada emasligi mazkur mavzuda chuqur ilmiy-uslubiy izlanishlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog’liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq IL-402104337 “Qishloq hududlarida xususiy sektorni kengaytirish xususiyatlarini tadqiq qilish va uning respublika agrar sohasini barqaror o’sishiga ta’sirini baholash indikatorlarini ishlab chiqish” mavzusidagi (2022-2024 yy.) amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish bo’yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“iqtisodiy resurs” kategoriyasining mohiyati va mazmunini nazariy jihatdan tahlil etish hamda muallif qarashlarini shakllantirish;

sanoatda iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish tamoyillarini ishlab chiqish;

sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslarni boshqarish va ulardan samarali foydalanishning tashqi va ichki omillarini aniqlash;

sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini baholash usullarini aniqlash;

O‘zbekiton yengil sanoati rivojlanish holati va tendensiyalarini tahlil etish;

sanoat korxonalarini faoliyati rivojlanishining omilli tahlilini amalga oshirish;

hududiy sanoat ishlab chiqarishi rivojlanishining ekonometrik tahlilini amalga oshirish;

sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirish omillari va rezervlarini aniqlash;

⁵ Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти: Назария ва амалиёт / Дарслик. Қайта ишланган ва тўлдирилган 3-нашр. – Т.: ЎзР ФА «FAN» нашриёт давлат корхонаси, 2019. – 592 б; Абдукаримов Б.А. ва бошқалар. «Корхона иқтисодиёти». Дарслик. 2-нашри. – Т.: «Фан ва технология» нашриёти, 2013. – 368 б.; Зайнутдинов Ш.Н. Совершенствование организации труда в условиях ускорения научно-технического прогресса (на материалах промышленности Узбекской ССР): дисс.д-р.экон.наук. – Т. 1988.; Махкамова М.А. Формирование организационно-экономического механизма управления инновационной деятельностью на предприятиях машиностроения Республики Узбекистан: дисс. д-р. экон. наук. – Т.: ТГТУ, 1999.; Ортиқов А. Саноат иқтисодиёти (дарслик). – Т.: ТДИУ. 2004; Турсунхўжаев М.Л. Проблемы совершенствования организации оплаты труда работников промышленности (на примере легкой промышленности Узбекистана): дисс.д-р.экон.наук. – Т. 1975.; Умурзаков Б.Х. ва б. Меҳнат ресурслари шаклланиши ва тақсимланишининг ҳудудий хусусиятлари. Монография. – Т.: «LESSON PRESS» 2017. 188 б.; Махмудов Э.Х. Корхона иқтисодиёти – Т.: ТДИУ 2004. – 208 бет; Махмудов Э.Х., Исоқов М.Ю. Капитал қурилиш иқтисодиёти (маърузалар матни) – Т.: ТДИУ 2005; Тожибоева Д. Самарадорлик ва унга назарий жиҳатдан классик ва неоклассик ёндашув. // Халқаро молия ва ҳисоб электрон журнал. – Т.: №5, 2017; Юлдашева Ш.М. Саноат тармоқлари технологияси - (ўқув кўлланма) – Т.: ТДИУ 2004. – 304 бет.

sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlash;

sanoatda iqtisodiy resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari va istiqbollari bo'yicha ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida yengil sanoat ishlab chiqarish korxonalari faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish bilan bog'liq munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tizimli tahlil, guruhlashtirish, induksiya-deduksiya, mantiqiy va qiyosiy tahlil, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik va omilli tahlil, ekonometrik tahlil va prognozlashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra, "iqtisodiy resurs" tushunchasining iqtisodiy mazmuni jamiyat (tarmoq, korxonalar) maqsadlariga erishish uchun ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish, ish bajarish) jarayonida potensial foydalaniladigan cheklangan tavsifga ega tabiiy, moddiy, nomoddiy va inson resurslari majmui hamda iqtisodiy faoliyatning zarur tarkibiy elementlari va shart-sharoitlari bazasini birlashtirish integratsiyalashgan tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini rivojlanish strategiyasiga muvofiq holda resurslarni boshqarish tizimini yaratish nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sishni integral baholash usulini ishlab chiqarish jarayonlari rivojlanishining intensiv va ekstensiv omillari ta'siri xususiyatlariga ko'ra takomillashtirish orqali ularning xususiy ko'rsatkichlar vositasidagi o'zaro bog'liqligi intensiv ($I_r > 1$ bo'lgan holatda) va ekstensiv ($I_r < 1$ bo'lgan holatda) omillar ta'sirida sodir bo'lishi shartlari asoslangan;

Qashqadaryo viloyati sanoat korxonalarining texnik-texnologik rivojlanishi (TT_r), tarmoq qonunchilik tizimi (T_{iq}), bozordagi raqobat (R_b), iste'molchilar talabining shakllanishi (T_i) bilan bog'liq tashqi omillar hamda korxonaning rivojlanish strategiyasi (RS_k), ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish (TE_i), korxonaning moliyalashtirish imkoniyatlari (MI_k)ni ifodalovchi ichki omillar o'rtasidagi maqbul nisbat (0,21; 0,28; 0,17; 0,34 / 0,32; 0,35; 0,33) ni ta'minlash orqali iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish asoslangan;

Qashqadaryo viloyatida sanoatning barqaror rivojlanish dinamikasi hamda tarmoqda yalpi ishlab chiqarish hajmini oshirishning 2030 yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sanoatning fan sig'imi yuqori bo'lgan korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarish samaradorligini oshirish, innovatsion-investitsion faoliyatni rivojlantirish hamda ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etishning maqsadli dasturini realizatsiya qilish taklifi asoslangan;

sanoat korxonalarining texnik-texnologik rivojlanishi, tarmoq qonunchilik tizimi, bozordagi raqobat, iste'molchilar talabining shakllanishi bilan bog'liq tashqi omillar hamda korxonaning rivojlanish strategiyasi, ishlab chiqarish jarayonlarini

tashkil etish, korxonaning moliyalashtirish imkoniyatlarini ifodalovchi ichki omillar tasniflangan;

korxonada innovatsion faoliyatning tashqi va ichki omillarini hisobga olgan holda innovatsion loyihalarni baholash, resurslardan funksional-maqsadli foydalanishni optimallashtirish hamda innovatsion loyihalarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan innovatsion faoliyatini boshqarish algoritmi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan yondashuvlar va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining statistik ma‘lumotlari, Qashqadaryo viloyati Davlat statistika Bosh boshqarmasi va Qashqadaryo viloyati sanoat korxonalarining hisobotlaridan olingani hamda tegishli xulosa va tavsiyalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish, korxonalarining resurs salohiyatini oshirish, korxonalarda iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish, mehnat unumdorligini oshirish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish yo‘nalishlarida ilmiy apparatni boyitish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish, innovatsion rivojlanishni ta‘minlash, mehnat unumdorligini oshirish, sohaga oid me‘yoriy hujjatlarni tayyorlash, shuningdek, sanoat korxonalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda, “Iqtisodiyot nazariyasi”, “Sanoat iqtisodiyoti”, “Korxonalar iqtisodiyoti” fanlari bo‘yicha o‘quv dasturlarini takomillashtirish, darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra, “iqtisodiy resurs” tushunchasining iqtisodiy mazmunini jamiyat (tarmoq, korxonalar) maqsadlariga erishish uchun ishlab chiqarish (xizmat ko‘rsatish, ish bajarish) jarayonida potensial foydalaniladigan cheklangan tavsifga ega tabiiy, moddiy, nomoddiy va inson resurslari majmui hamda iqtisodiy faoliyatning zarur tarkibiy elementlari va shart-sharoitlari bazasini birlashtirish integratsiyalashgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlanish strategiyasiga muvofiq holda resurslarni boshqarish tizimini yaratish nuqtai nazaridan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan “Sanoat iqtisodiyoti” nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2023-yil 29-sentabrdagi 314-sonli buyrug‘i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda resurslar majmui hamda iqtisodiy faoliyatning zarur tarkibiy elementlari va shart-sharoitlari bazasini birlashtirish integratsiyalashgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirish strategiyasiga muvofiq holda resurslarni boshqarish tizimini yaratish nuqtai nazaridan takomillashtirilgan “iqtisodiy resurs” tushunchasining iqtisodiy mazmuni bo‘yicha nazariy bilimlarni yanada kengaytirish

imkoni yaratilgan;

sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sishni integral baholash usulini ishlab chiqarish jarayonlari rivojlanishining intensiv va ekstensiv omillari ta'siri xususiyatlariga ko'ra takomillashtirish orqali ularning xususiy ko'rsatkichlar vositasidagi o'zaro bog'liqligi intensiv ($I_r > 1$ bo'lgan holatda) va ekstensiv ($I_r < 1$ bo'lgan holatda) omillar ta'sirida sodir bo'lishi shartlari bo'yicha taklifi O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining hududiy boshqarmalari amaliyotiga foydalanish uchun qabul qilingan (Savdo-sanoat palatasining 2024-yil 29-maydagi 9/03-31-8856-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida sanoat korxonalarida mehnat unumdorligi va fondlar qaytimi indekslarining 1,0 koeffitsiyentdan oshirish orqali iqtisodiy o'sish darajasining umumiy indeksini 1,6 koeffitsiyentga oshirishga erishilgan;

Qashqadaryo viloyati sanoat korxonalarining texnik-texnologik rivojlanishi (TT_r), tarmoq qonunchilik tizimi (T_{iq}), bozordagi raqobat (R_b), iste'molchilar talabining shakllanishi (T_i) bilan bog'liq tashqi omillar hamda korxonaning rivojlanish strategiyasi (RS_k), ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish (TE_i), korxonaning moliyalashtirish imkoniyatlari (MI_k)ni ifodalovchi ichki omillar o'rtasidagi maqbul nisbat (0,21; 0,28; 0,17; 0,34 / 0,32; 0,35; 0,33) ni ta'minlash orqali iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining hududiy boshqarmalari amaliyotiga foydalanish uchun qabul qilingan (Savdo-sanoat palatasining 2024-yil 29-maydagi 9/03-31-8856-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida sanoat korxonasini rivojlantirish uchun strategik biznes qarorlarini ishlab chiqishda maqsadlarni aniqlash hamda resurslardan samarali foydalanish imkoni yaratilgan;

Qashqadaryo viloyatida sanoatning barqaror rivojlanish dinamikasi hamda tarmoqda yalpi ishlab chiqarish hajmini oshirishning 2030 yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining hududiy bo'limlari amaliyotida foydalanilgan (Savdo-sanoat palatasining 2024-yil 29-maydagi 9/03-31-8856-son ma'lumotnomasi). Ushbu prognoz ko'rsatkichlaridan foydalanish 2030 yilga kelib, Qashqadaryo viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratiladigan jami sanoat mahsuloti hajmini 52,9%ga va qayta ishlash sanoati hajmini 36,4%ga oshirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan, respublika miqyosidagi 3 ta va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 152 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o‘tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Sanoat korxonalarini iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida sanoatda intensiv iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlashning muhim omili sifatida “iqtisodiy resurs” kategoriyasining ta‘rifi mualliflik yondashuvi asosida takomillashtirilgan varianti taklif etilib, sanoatda iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish tamoyillari aniqlangan hamda tarmoq korxonalarida iqtisodiy resurslar alohida yo‘nalishlari bo‘yicha tasniflangan. Shuningdek, sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari ilmiy-uslubiy jihatdan yoritib berilgan.

Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish sharoitida sanoat korxonalarining barqaror iqtisodiy rivojlanishi, ularning faoliyati samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida – iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishni taqozo etmoqda. Ushbu jarayonda sanoat korxonalarini faoliyati samaradorligini oshirish hamda ishlab chiqarish jarayonlari intensivligini ta‘minlash, tarmoq korxonalarida iqtisodiy resurslardan tejamli foydalanish, mehnat unumdorligini oshirish, mehnat jarayonlarining intellektuallashtirish darajasini yuksaltirish, sanoat mahsulotlari hajmi va sifatini yaxshilash, iste‘mol bozori talabini to‘liq qondirish kabilar muhim vazifalardan hisoblanadi. Shuningdek, sanoat korxonalarining xalqaro bozorlardagi o‘rnini yuksaltirish va sanoat mahsulotlari eksportini ko‘paytirish, ishlab chiqarishning mahalliyashtirish darajasini kengaytirish mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining maqsadlaridan biri sanaladi.


Sanoat korxonalarini zarur resurslar bilan ta‘minlash boshqaruv jarayonining asosiy vazifalaridan biridir. “Resurslar” tushunchasi iqtisodiyotda ishlab chiqarish omillari shakllanishining muhim kategoriyalaridan biridir. Olimlar tomonidan iqtisodiy resurslarga iqtisodiy termin sifatida korxonalar faoliyatining turli tomonlarini hisobga olgan holda ko‘plab ta‘riflar berilgan va ilmiy yondashuvlar asoslangan Sanoat ishlab chiqarishiga umumiy tavsif berish va ushbu sohada faoliyat yurituvchi korxonalarining resurs salohiyatini aniqlash uchun avvalo, “iqtisodiy resurs” kategoriyasining mohiyatini tadqiq etish hamda uning aniq ta‘rifini ishlab chiqish lozim.

Iqtisodiy resurslarning barcha turlariga xos bo‘lgan xususiyat, ularning nisbatan cheklanganligi va kamyoqligi bilan ajralib turadi. Resurslardan oqilona foydalanish konsepsiyasiga asoslangan korxonalar rivojlanishini strategik boshqarishning uslubiy yondashuvlari ularning mohiyatini ochib beradi va rivojlanishning innovatsion yo‘nalishlari, iqtisodiy barqarorlik va barqarorlik tamoyillari hamda o‘zaro hamkorlikning hududiy shakllari bilan uyg‘unlikni ta‘minlaydi (1-pacm).



1-pacm. Resurslardan oqilona foydalanishning uslubiy ta'minoti: konseptual yondashuv⁶

Muallif tomonidan ishlab chiqilgan ta'rifga ko'ra, iqtisodiy resurs – jamiyat (tarmoq, korxonalar) maqsadlariga erishish uchun ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish, ish bajarish) jarayonida potensial foydalaniladigan cheklangan tavsifga ega tabiiy, moddiy, nomoddiy va inson resurslari majmui hamda iqtisodiy faoliyatning zarur tarkibiy elementlari va shart-sharoitlaridir (2-rasm).



2-rasm. Iqtisodiy resurslarning tarkibiy elementlari⁷

⁶ Muallif tomonidan tuzilgan.

⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Har qanday resursdan oqilona foydalanilgan taqdirda ham ma'lum chegaradan ortiq mahsulot yaratib bo'lmaydi. Shuning uchun, resurslar bazasini birlashtirish integrasiyalashgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirish strategiyasiga muvofiq holda resurslarni boshqarish tizimi yaratilishini zarurat etadi.

Sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish muayyan tamoyillarga asoslanishi lozim. Bu esa ishlab chiqarish korxonalarida faoliyatida realizatsiya qilinadigan maqsad va vazifalarni bajarish jarayoni muayyan obyektiv xususiyatlar bilan bog'liq muhim qoidalarni ifodalaydi.

Sanoat korxonalarida rivojlanishining ichki muhiti – barcha resurs imkoniyatlari – ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish salohiyati va imkoniyatlarini belgilaydi. Korxonalar resurslari sanoat ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiy salohiyati usuri hisoblanadi. Obyektiv holatga ko'ra, doimiy tarzda resurslar yetishmaydi. Shuning uchun aksariyat ishlab chiqarish korxonalarida innovatsiyalarni joriy etish, resurslardan oqilona foydalanish bilan bog'liq intensiv o'sish omillariga e'tibor qaratadilar. Bunda puxta o'ylangan resurs strategiyasini ishlab chiqish asosida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini aniqlash zarur.

Sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish uchun iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish va ularni boshqarish tizimini takomillashtirish zarur, bunga esa boshqaruv tizimining maqsadga muvofiq holda o'zgarishi va uning yangi sifat bosqichiga o'tish orqali erishiladi. Shunday ekan, korxonalarda resurslardan samarali foydalanish tizimining rivojlanishi ularni boshqarish texnologiyalari, usullari va tamoyillarining sifat jihatidan o'zgarishini ta'minlash orqali erishiladi.

Bizning fikrimizcha, iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish sharoitida sanoat korxonalarida xo'jalik faoliyatini boshqarish tizimining shakllanishi ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishning funksional tizimlari orqali amalga oshiriladi. Sanoat korxonalarida resurslarni boshqarish tizimi va uning barcha biznes jarayonlarini modellashtirish ishlab chiqarish natijadorligiga erishishdagi xarajatlarni minimallashtirish imkonini beradi hamda intensiv rivojlanishni ta'minlaydi (1-jadval).

Respublikamizda zamonaviy sanoat tarmoqlarining o'rnini alohida ahamiyatga ega bo'lib, iqtisodiyotning boshqa yetakchi tarmoqlari rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Shunga ko'ra, mazkur tarmoqda iqtisodiy samaradorlikni baholash mezonlari yalpi mehnat unumdorligini⁸ oshirish, ishlab chiqarish xarajatlari nisbiy darajasini pasaytirish, korxonaning bozordagi raqobatbardoshligini ta'minlash, korxonalar bo'yicha rentabellikni, xo'jalik faoliyati natijadorligini, korxonalar rentabelligi kabilarni oshirish, innovatsiyalarni joriy etish asosida sinergetik samaraga erishish kabilardan iboratdir. Mazkur mezonlardan kelib chiqqan holda, tadqiqot jarayonida sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini baholash usuli resurslardan oqilona foydalanishga ta'sirini belgilovchi omillar hamda ularning korxonalar va sanoat hududlari iqtisodiy rivojlanishini tavsiflovchi indekslar asosida takomillashtirildi.

⁸ Yalpi unumdorlik ishlab chiqarish omili sifatida foylanadigan barcha resurslarni barcha so'nggi natijaga nisbatini tasniflaydigan ko'rsatkich bo'lib, yalpi faoliyat samaradorligini ifodalaydi.

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etishning asosiy funksional tizimlari⁹

Korxonada ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish tizimlari			
1. Ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish	2. Moliyaviy-iqtisodiy faoliyatini tashkil etish	3. Texnik-texnologik jihatdan tashkil etish	4. Korxonada mehnatni tashkil etish tizimi
Ishlab chiqarish jarayonini rejalashtirish	Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni rejalashtirish	Funksional bo'limlarni tashkil etish	Rejalashtirish va marketing tadqiqoti tizimi
Ishlab chiqarish shakllarini tashkil etish	Asosiy va aylanma fondlarni boshqarish	Tashkiliy tuzilmani boshqarish	Ishchi-xodimlar faoliyatini tashkil etish tizimi
Ishlab chiqarish faoliyatini tartibga solish	Moliyaviy faoliyatni boshqarish	Hujjatlar aylanishini nazorat etish	Ishchi-xodimlarni kasbga yo'naltirish va moslashtirish tizimi
Ishlab chiqarish infratuzilmasini tashkil etish	Buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish	Axborot oqimlari va kommunikatsiyalar	Ishchi-xodimlarni o'qitish va rivojlantirish tizimi
Moddiy-texnik ta'minotni tashkil etish	Iqtisodiy tahlilni amalga oshirish	Kerakli texnik jihozlar va ofis mebellari	Xodimlar motivatsiyasini tashkil etish tizimi
Ishlab chiqarishga transport va logistik xizmat ko'rsatish	Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari. Xo'jalik aloqalarni boshqarish	Mehnat faoliyatini rejalashtirish va tashkil etish	Ijtimoiy rivojlanishni boshqarish

Korxonada mavjud bo'lgan resurslarni ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilishning oqilona darajasi ulardan foydalanish samaradorligi bilan tavsiflanadi. Shuning uchun muhim vazifalardan biri resurslarning mavjudligi darajasini asoslash va korxonada resurslaridan samarali foydalanishni tashkil etish bilan bog'liq. Bunda samaradorlik har qanday iqtisodiy jarayonning natijadorligini bildiradi. Uni aniqlash uchun ma'lum bir ishlab chiqarish omili xarajatlar va undan foydalanish natijasida olingan tayyor mahsulot ko'rinishidagi natijalarni taqqoslaydigan nisbiy ko'rsatkichdan foydalaniladi.

Shu sababli, korxonada samaradorligini oshishiga uning resurslaridan oqilona foydalanishga ta'sirini belgilovchi integral ko'rsatkich (C) mehnat resurslari omili (K_1), ishlab chiqarishda foydalaniladigan resurslar (K_2), tabiiy resurslar (K_3), intellektual va axborot resurslaridan foydalanish (K_4), moliyaviy resurslar (K_5) ni ifodalovchi ko'rsatkichlar asosida baholanadi:

$$C = F \sum K^n, \quad (1)$$

bu yerda: C – resurslardan oqilona foydalanish samaradorligi; K – omillar va ularning korxonalar va sanoat hududlari iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirini tavsiflovchi indekslar ($n=1; 2; 3; 4; 5$).

⁹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini baholashda ishlab chiqarish omillari soni o'rtasidagi nisbat shunday bo'lishi kerakki, bir omilning yakuniy unumdorlik narxiga nisbati boshqa omilning yakuniy unumdorlik nisbatiga teng bo'lsin.

$$\frac{YU_1}{B_1} = \frac{YU_2}{B_2} = \dots = \frac{YU_n}{B_n}, \quad (2)$$

bu yerda: $YU_1, YU_2, YU_3 \dots YU_n$ – muvofiq ravishda $1, 2, 3 \dots n$ – iqtisodiy resursning yakuniy unumdorligi; $B_1, B_2, B_3 \dots B_n$ – muvofiq ravishda $1, 2, 3 \dots n$ – iqtisodiy resurs qiymati.

Omilning yakuniy unumdorligi ishlab chiqarishda ishtirok etuvchi omilning oxirgi birligi (dastgoh, tokar, ishchi va b.) tomonidan yaratilgan mahsulot hajmining o'sish sur'ati bilan belgilanadi.

Dissertatsiya ishining **“O‘zbekiston yengil sanoat tarmog‘i rivojlanishi va korxonalarda iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligi tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida hududiy sanoat tarmog‘ining rivojlanishi holati va tendensiyalari hamda hududiy to‘qimachilik sanoat ishlab chiqarishni rivojlantirishning resurs salohiyati va imkoniyatlari baholangan. Shuningdek, hududiy sanoat ishlab chiqarishni rivojlantirishning imkoniyatlari tahlili amalga oshirilgan.

Ma'lumki, har qanday davlatning iqtisodiy salohiyati, uning sanoat ishlab chiqarishi qay darajada rivojlanganligi bilan baholanadi. Shu sababdan, mamlakatimizda sanoatning barcha tarmoqlarini rivojlantirish, ularning raqobatbardoshligini oshirish, buning uchun bozor munosabatlariga mos bo'lgan barcha vositalardan, eng yangi tajribalardan g'oyat samarali foydalanish zaruratini tug'dirmoqda.

Mamlakat tarkibiy siyosatining bosh maqsadlaridan biri ham sanoatda tarkibiy qayta tuzishni amalga oshirish orqali O'zbekiston iqtisodiyoti raqobatbardoshligini ta'minlashdan iborat. Shuning uchun sanoat tarmog‘ini tarkibiy jihatdan o'rganish, tahlil qilish va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish uchun eng samarali tarmoqlarga alohida urg'u berish lozimdir.

Sanoat tarmoqlari tuzilmasini tavsiflash uchun ayrim tarmoqlar orasidagi ma'lum ishlab chiqarish aloqadorligini ifodalovchi miqdoriy nisbatlarni aniqlab olish lozim. Bu masalani hal qilish uchun bir nechta ko'rsatkichlar qo'llanadi. Ulardan biri tarmoqlar orasidagi nisbatlarni bildirsa, ikkinchisi ma'lum davr ichidagi tuzilmaviy o'zgarishlarni, uchinchisi esa, ishlab chiqarish aloqalarini ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat majmui tarkibida amalga oshirilgan o'zgarishlar oqibatida sanoat mahsulotlari umumiy hajmida barcha sohalarda o'sish kuzatilgan¹⁰ (2-jadval).

Jadval ma'lumotlaridan ma'lumki, 2023-yil ko'rsatkichlari 2017-yilga nisbatan umumiy sanoat ishlab chiqarishida 106,3% ga o'sgan bo'lsa, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish, kiyim ishlab chiqarish sohasining ulushi

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari.

100,5%, 110,5% dan 106,4%, 112,7% ga oshgan. Shuningdek, ushbu jadval ma'lumotlaridan sanoatning boshqa tarmoqlarida ham shu kabi o'zgarishlar yuz berganligini ko'rish mumkin.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (% da)

Tarmoqlar	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Sanoat mahsuloti	105,2	110,8	105	100,9	108,8	105,3	106,3
Ishlab chiqarish sanoati	104,2	107,9	106,6	107,9	108,3	105,4	107,4
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	100,5	107,4	105,3	117,4	119,5	109,9	106,4
Kiyim ishlab chiqarish	110,5	103,3	108,7	107,2	118,7	105,8	112,7
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	111,2	94,6	78	97,4	103,9	104,3	105,9
Yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), poxol va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	104,1	156	85,3	88,1	129,2	104,2	96
Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish	104,2	104,5	111,6	106,4	115,4	114,6	110,3
Yozilma materiallarni nashr qilish va aks ettirish	106,3	96,2	98,1	76,3	127,8	140,5	84,9
Mebel ishlab chiqarish	107,2	102,2	106,7	107,7	108,1	104,4	106,6
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	88,6	96,4	109,9	110,3	109,7	95,5	115,8

Bugungi kunga kelib, Respublikada jami 134 ta paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyat yuritmoqda. Paxta-to'qimachilik klasterlarida paxta terishni zamonaviy usullaridan foydalanilib, jumladan, yetishtirilgan hosil AQSh (John Deere), Germaniya (Case), Xitoy va boshqa davlatlarda ishlab chiqarilgan paxta terish mashinalarida terib olinmoqda.

O'tgan yillar davomida O'zbekiston paxta resurslari markaziga aylandi va avvallari paxta xomashyosining asosiy qismini eksport qilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib to'qimachilik sanoati mamlakatimizda yetishtirilgan 3,0 mln. tonnadan ortiq paxtani 100 % qayta ishlash, qo'shimcha ravishda qo'shni davlatlardan paxta tolasini import qilish quvvatlarini yaratishga muvaffaq bo'ldi.

Sanoatda ishlab chiqarish samaradorligining iqtisodiy mazmuni bo'yicha turlicha yondashuvlar mavjud. Tadqiqot jarayonida samaradorlik kategoriyasi turli xil nuqtai nazardan talqin qilinishi aniqlandi. Sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish mahsulot ishlab chiqarish jarayonining intensivligi orqali ta'minlanadi va uning iqtisodiy natijasini ifodalaydi. Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaraga moddiy, moliyaviy, mehnat resurslaridan samarali foydalanish orqali erishiladi va ish vaqtini tejash, qurilish ishlarini jadallashtirish, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish, ish vaqti samaradorligini oshirish,

ishlab chiqarishni rivojlantirish, mablag' aylanishini tezlashtirish, ishlar sifatini yaxshilash kabilar asosida aniqlanadi.

3-jadval

Qashqadaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishining asosiy ko'rsatkichlari¹¹

№	Ko'rsatkichlar	Yillar					2023 yil 2019 yilga nisbatan o'sish, (%)
		2019	2020	2021	2022	2023	
1.	Sanoat mahsuloti hajmi, mlrd. so'm	14529,5	20360,1	14574,8	18771,9	22624,4	155,7
2.	Sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, o'tgan yilga nisbatan, %da	108,3	93,7	100,5	115,4	110,1	-
shu jumladan:							
3.	Qazib olish sanoati hajmi, mlrd. so'm	5395,5	9135,9	1675,9	2079,4	1715,2	31,8
4.	Qayta ishlovchi sanoati hajmi, mlrd. so'm	7366,3	8534,7	10097,0	12131,1	15352,2	2,1 marta

Mamlakatimizda, jumladan, Qashqadaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishi hajmining oshishida intensiv omillar ulushi yildan yilga o'sib, innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqda, shuningdek, iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish natijasida ishlab chiqarish samaradorligi bosqichma-bosqich o'sib bormoqda.

Qashqadaryo viloyatining makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga nazar solinsa, keyingi yillar mobaynida yalpi hududiy mahsulot(YaHM)ning dinamik o'sish tendensiyasini kuzatishimiz mumkin.


Qashqadaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishining asosiy ko'rsatkichlari tahliliga ko'ra, sanoat mahsuloti hajmi 2019-yilda 14529,5 mlrd. so'mni, 2023-yilda bu ko'rsatkich 22624,4 mlrd. so'mni tashkil etgani holda, 55,7%ga oshgan. Sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari o'tgan yilga nisbatan 2019-yilda 8,3%ga va 2023-yilda 10,1%ga o'sgan. Tahlil etilayotgan yillarda qazib olish sanoati hajmi deyarli 3,0 martaga (31,8%) qisqargan bo'lsa, qayta ishlovchi sanoat hajmi 2,1 martga oshgan (3-jadval).

Viloyatda qayta ishlash sanoatining tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqlarning ulushi 1,6%, o'rta yuqori texnologiyali sanoatning ulushi 23,8%, o'rta past texnologiyali sanoatning ulushi 39,5% va past texnologiyali sanoatning ulushi esa 35,1% bo'lgan.

3-rasm ma'lumotlariga ko'ra, viloyatda iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lamli tadbirlar natijasida sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2023-yilda 2013-yilga nisbatan 3,7 martaga oshgan bo'lsa, ushbu davrlar oralig'ida tarmoqda faoliyat yuritayotgan korxonalar soni 2013-yildagi 2393 tadan 2023-yilda 5605 taga ko'paygan. Sanoat korxonalari sonining ko'payishi

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentli ma'lumotlari asosida tuzilgan.

viloyatda aholi bandligi darajasining oshishiga olib kelmoqda.



3-rasm. Qashqadaryo viloyatida 2012-2023 yillarda sanoat ishlab chiqarish hajmi va sanoat korxonalari soni¹²

Sanoat ishlab chiqarish samaradorligi hamda iqtisodiy o'sishi mehnat jarayonlari xususiyatlari, texnik darajasi va shart-sharoitlariga bog'liq holda turli xil omillar ta'siri natijasida o'zgarib turadi. Shunga ko'ra, Qashqadaryo viloyatida tanlab olingan sanoat korxonalarida iqtisodiy o'sishning omilli tahlili amalga oshirildi. Bunda asosiy maqsad iqtisodiy o'sishning intensiv va ekstensiv omillarini mahsulot ishlab chiqarish faoliyati natijasida iqtisodiy o'sishga ta'sirini aniqlash asosiy maqsad hisoblanadi. O'tkazilgan omilli tahlil doirasida ekstensiv va intensiv omillar ta'siri indekslarni qiyoslash (taqqoslash) usuli orqali amalga oshirilib, iqtisodiy o'sish darajasi aniqlanadi.

Quyida iqtisodiy o'sish dinamikasining umumiy indeksi formulasi keltirilgan¹³:

$$I_r = \frac{I_{mu} \times I_{fq}}{I_n \times I_{af}}, \quad (1)$$

bu yerda: I_r – iqtisodiy o'sishning umumiy indeksi; I_{mu} – mehnat unumdorligi indeksi; I_{fq} – fondlar qaytimi indeksi; I_{af} – asosiy fondlar indeksi; I_n – sohada band bo'lganlar indeksi.

Bunda $I_r > 1$ bo'lsa, iqtisodiy o'sish intensiv, agarda $I_r < 1$ bo'lsa, u holda iqtisodiy o'sish ekstensiv omillar ta'sirida sodir bo'ladi.

Qashqadaryo viloyati sanoat korxonalarida mehnat unumdorligi, fondlar qaytimi, band bo'lgan ishlovchilar va asosiy ishlab chiqarish fondlari indeksi hamda ushbu tarmoqlarda iqtisodiy o'sish darajasining umumiy indeksi ishlab chiqildi.

¹² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

¹³ Рубцова Н.В. Оценка эффективности сервисной деятельности. // Дисс. кан. экон. наук. – Иркутск: 2006. – С. 171.

Demak, “SANAM” MChJ, “Kitob ip yigiruv” AJ va “Bunyodkor” MChJ korxonalarida intensiv va ekstensiv omillar ta’sirini baholashning indeks usuli orqali iqtisodiy o’sish aniqlandi. Mazkur indekslar hisob-kitobi 4-5-6-jadvallarda keltirilgan.

4-jadval

Qashqadaryo viloyati tanlab olingan sanoat korxonalarida mehnat unumdorligi (I_{mu}) va fondlar qaytimi (I_{fq}) darajasining indekslari¹⁴

Yillar	Sanoat korxonalarida					
	“SANAM” MChJ		“Kitob ip yigiruv” AJ		“Bunyodkor” MChJ	
	I_{mu}	I_{fq}	I_{mu}	I_{fq}	I_{mu}	I_{fq}
2019	1,0	1,0	1,0	1,0	1,0	1,0
2020	0,88	1,05	0,22	0,27	1,07	1,01
2021	0,75	1,21	1,22	3,73	1,44	1,07
2022	0,79	0,88	3,71	1,06	1,87	0,95
2023	1,58	1,33	1,11	1,04	0,35	1,07

Ushbu jadvallardan ko‘rinib turibdiki, “SANAM” MChJ va “Kitob ip yigiruv” AJ korxonalarida intensiv omillar (mehnat unumdorligi va fondlar qaytimi) ta’siri bir muncha yuqoriroqdir. Mehnat intensivligining o‘zgarishi ham subyektiv, ham obyektiv omillarga bog‘liq. Intensivlik ishchi-xodimlarning irodasi va ongi ishtirokida o‘zgaradi yoki muayyan sabablarga ko‘ra, uni kamaytirish yoki ko‘paytirishni xodimning o‘zi hal qiladi. Shuningdek, sanoat korxonalarida band bo‘lganlar soni (I_n) va asosiy fondlar (I_{af}) dinamikasi indekslari 1,0 koeffitsiyentdan nisbatan yuqori ekanligi ekstensiv omillar ta’siri ustunligini ifodalaydi (5-jadval).

5-jadval

Qashqadaryo viloyati tanlab olingan sanoat korxonalarida band bo‘lganlar soni (I_n) va asosiy fondlar (I_{af}) dinamikasi indekslari¹⁵

Yillar	Sanoat korxonalarida					
	“SANAM” MChJ		“Kitob ip yigiruv” AJ		“Bunyodkor” MChJ	
	I_n	I_{af}	I_n	I_{af}	I_n	I_{af}
2019	1,0	1,0	1,0	1,0	1,0	1,0
2020	1,32	1,12	1,20	1,0	1,46	1,54
2021	1,74	1,06	1,0	3,28	1,22	1,64
2022	1,18	1,07	1,0	3,49	1,32	2,53
2023	1,04	1,23	1,0	1,07	3,5	1,16

Viloyatda bozor munosabatlari rivojlanishining dastlabki yillarida sanoat tarmoqlarida iqtisodiy o’sish ekstensiv omillar hisobiga erishilgan (ya’ni, shu sohada band bo‘lganlar soni va asosiy ishlab chiqarish fondlari miqdori). Shuning uchun ham

¹⁴ Muallif tomonidan Qashqadaryo viloyati Davlat statistika Bosh boshqarmasi ma’lumotlari asosida hisoblangan.

¹⁵ Muallif tomonidan Qashqadaryo viloyati Davlat statistika Bosh boshqarmasi ma’lumotlari asosida hisoblangan.

viloyat sanoat tarmoqlarida iqtisodiy o‘shishning intensiv va ekstensiv omillari ta’siri darajalariga qarab tahlil etish va baholash muhim ahamiyatga ega.

6-jadval

Qashqadaryo viloyati tanlab olingan sanoat korxonalarida iqtisodiy o‘shish darajasining umumiy indeksi¹⁶

Yillar	Sanoat korxonalari		
	“SANAM” MChJ	“Kitob ip yigiruv” AJ	“Bunyodkor” MChJ
2020	0,62	0,05	0,48
2021	0,49	1,39	0,77
2022	0,55	1,13	0,53
2023	1,64	1,08	0,09

6-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2020-2023 yillar davomida Qashqadaryo viloyatining tanlab olingan sanoat korxonalarida, xususan, “SANAM” MChJda 2020-2022 yillarda iqtisodiy o‘shish jarayonida ekstensiv omillar ($I_k < 1$) (2020 – 0,62; 2021 – 0,49; 2022 – 0,55) ustun bo‘lib, faqat 2023 yilda korxonada intensiv omillar ($I_k > 1$) ta’siri darajasi yuqori bo‘lgan, ya’ni mehnat unumdorligi va fondlar qaytimi indekslarining oshishi hisobiga iqtisodiy o‘shishga erishilgan. 5-jadvaldan ko‘rishimiz mumkin, “Bunyodkor” MChJda band bo‘lganlar soni (I_n) va asosiy fondlar (I_{af}) dinamikasi indeksleri yuqori ko‘rsatkichga egaligi sababli korxonaning iqtisodiy o‘shishida ekstensiv omillar ($I_k < 1$) hissasi ancha ustun bo‘lgan. “Kitob ip yigiruv” AJda esa faqat 2020-yilda ekstensiv omillar ustunligi korxonaning iqtisodiy o‘shishida ustuvor bo‘lib, qolgan uchta yilda intensiv omillar ($I_k > 1$) ta’siri darajasi yuqori bo‘lgan.

Hududiy sanoat ishlab chiqarish jarayonini to‘g‘ri tashkil etish va boshqarish, sanoat ishlab chiqarishida tadbirkorlikni rivojlantirish raqamli iqtisodiyot sharoitida ayniqsa muhim hisoblanadi va sanoat ishlab chiqarishida matematik modellarni qo‘llash orqali unga ta’sir etuvchi omillarni hisobga olgan holda optimal darajada to‘g‘ri prognozlash alohida ahamiyat kasb etadi.

